

## **2024 YIL MOBAYNIDA AMALGA OSHIRILGAN MAHALLIYLASHTIRISH DASTURI IJROSI**

2024 yilda mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yilning yanvar-iyun oylarida **168** ta (grafik bo'yicha 167 ta) loyiha bo'yicha **471,6 mlrd.so'mlik** yoki davr prognoziga nisbatan **100,5%**ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2023 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **145,5%**ni tashkil etdi.

Xususan, 3-gidrometallurgiya zavodi uchun yangi turdagi 4,5x6,0 metrli maydalash tegirmoni, masofada boshqariladigan avtomatlashtirish tizimlari asosida ishlovchi pultrlar, vibratsion oziqlantiruvchi boshqaruv shkafi, yangi turdagi kon-shaxta burg'ulash texnikalari uchun ehtiyot qismlari kabi mahsulot turlari ishlab chiqarildi.